

**O‘ZBEKISTON YER RESURSLARI, ULARNING HOLATI VA ULARDAN
OQILONA FOYDALANISH**

Olimqulov Yashnar Maxmadamin o‘g‘li

*Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Xo‘shboqova Mehriniso Gulmurod qizi

*Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Muzrobov Sherzod Chori o‘g‘li

*Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston yer resurslari, ularning holati va ulardan oqilona foydalanish masalalariga bag‘ishlanadi. Bugungi kunda yer resurslarining holati, yer resurslarining monitoringi, ularni baholash, sug‘oriladigan yerlarning mavjud meliorativ holati va uni yaxshilashda eksplulatsion injenerlik usullari va texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Mamlakatimiz yer resurslaridan oqilona foydalanish va himoyalash masalalari yetarlicha asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yer fondi, yer toifalari, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘oriladigan yerlar, zahira yerlar, yer resurslari monitoringi, tuproq degradatsiyasi, tuproq bonitirovkasi, yaylovlar degressiyasi.

Kirish. Ma‘lumki, O‘zbekiston yer resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Moddiy ne‘matlar orasida ham eng qimmatlisi bu yer resurslari hisoblanadi. Chunki, yer resurslari umumxalq boyligi bo‘lib qolmasdan davlatning doimiy daromad manbai va faqatgina undan oqilona va samarali foydalanish talab etiladi. Respublikamiz yer resurslarining sifat va miqdor holatini muntazam kuzatib borish va bu maqsadlarga erishishga qaratilgan strategik rejalarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish, yer resurslaridan foydalanuvchi subyektlarning faoliyat natijalariga baho berish yo‘llarini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Agarda yer resurslaridan tartibsiz foydalanish davom etaversa va uning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmasa, agrasanoat majmuasining iqtisodiyotiga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston yer resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan. Yer resurslarini turli xil ifloslanishlardan (shamol, suv eroziyasi, sho‘rlanish, suv bosishi) saqlanmasa uning unumdorlik darajasining pasayishiga olib keladi. O‘z navbatida yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni himoyalash chora- tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastrlarining ahamyati tobora ortib bormoqda. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish sabablarini aniqlash, salbiy tomonlari va sho‘rni ketkazish tadbirlarini samarali tashkil etish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

orqali yer resurslarini muhofaza qilish va unumdorlik darajasining pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik mumkin.

Ishning maqsadi va vazifalari: O‘zbekiston yer resurslaridan oqilona foydalanish uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini doimo oshirib borish; Qishloq xo‘jaligi yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish; Mamlakatimiz yer fondi tarkibi va holatini baholash, o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlarni o‘zlashtirish; Sug‘oriladigan yerlarning mavjud meliorativ holati va uni yaxshilashda ekspulatsion injenerlik usullari va texnologiyalarini qo‘llash va amaliyotga tatbiq etish kabi masalalar ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Asosiy qism. Ma‘lumki, mamlakatimiz tabiiy resurslar bilan yaxshi ta‘minlangan. Tabiiy resurslar orasida ham eng bebahosi bu yer resurslari hisoblanadi. Yer resurslari tugaydigan va tiklanadigan tabiiy boylik bo‘lishiga qaramasdan, undan oqilona foydalanish va muhofaza etish lozim. O‘zbekiston Respublikasida yer resurslari davlat mulki, umummilliy boylikdir. Undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Bugungi kunda yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya va deflyatsiya eroziysiga qarshi samarali kurashish bilan birga sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlari dinamikasi, minerallashuv darajasi, tuproq sho‘rlanishi, tuproq bonitetining pastligi kabi qator masalalarini bartaraf etish kun tartibiga qo‘yilgan. O‘zbekiston yer fondi tarkibi 44896.9 ming gektar bo‘lib, uning 257336 ming gektari qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar tashkil etadi. Sug‘orib ekin ekiladigan maydonlar 9.6 foizni yoki 4277.6 ming gektarni tashkil qiladi. Sug‘orildigan yerlarning 57 foizi tekislik cho‘l zonasiga qolgan 43 foizi tog‘ oldi, tog‘ mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Sug‘orib ekin ekiladigan tuproqlarning 60 foizidan ko‘prog‘ini avtomorf tuproqlar tashkil etadi. Mexanik tarkibiga ko‘ra, ularning asosiy qismini og‘ir qumoqli va gilli, 10 foizini yengil, 20 foizini esa o‘rtacha mexanik tarkibli tuproqlardir. Mamlakatimizda hozirgi paytda sug‘oriladigan yerlarning 46 foizi sho‘rlangan, 8 foizi suv va 15 foizi shamol eroziyasiga uchragan. Lalmi yerlar maydoni 750.1 ming gektar bo‘lib, ular yillik yog‘in miqdori 200 mm dam ortiq bo‘lgan hududlarda joylashgan. Lalmi yerlarning 12.1 foizi tabiiy nam bilan yaxshi ta‘minlanmagan, 74.5 foizi nam bilan to‘liq ta‘minlanmagan, 13.4 foizi nam bilan yaxshi ta‘minlangan. Tabiiy yaylovlar maydoni 22131.1 ming gektar bo‘lib, uning 87 foizi suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan. Mamlakatimizda yer resurslaridan foydalanish hajmi:

- Sug‘oriladigan yerlar 9.7 foiz;
- Tabiiy yaylovlar 50.1 foiz;
- Lalmikor yerlar 1.7 foiz;
- O‘rmonlar 3.2 foiz;
- Boshqa foydalanilmaydigan yerlar 35.3 foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston yer resurslari tarkibida qishloq xo‘jaligi yerlari (ekin yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z, ko‘p yillik daraxtlar bilan band yerlar), tomorqa yerlar, o‘rmonzor va butazorlardan, bog‘ va sabzavot uyushmalarining yerlari, meliorativ

qurilish holatidagi va boshqa yerlar (suv osti, yer osti, imoratlar bilan band) bo‘lgan yerlarni o‘z tarkibida birlashtiradi.

Mamlakatimiz yer resurslari yerdan foydalanishning asosiy maqsadiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi:

- Qishloq xo‘jaligi yerlari - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana shunday maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;

- Aholi punktlarining yerlari (shaharlar, posyolkalar, qishloq aholi punktlari) shahar va posyolka chegaralari doirasidagi yerlar ;

- Sanoat, transport, aloqa, mudofa maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar ma‘lum maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga beriladigan yerlar;

- Tabiatni muhofaza qilish, solomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladigan yerlar (tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan dam olish, turizm maqsadlarida foydalaniladigan yerlar), shuningdek, qo‘riqxonalar va milliy bog‘lardan tarkib topgan;

- Tarixiy madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan yerlar

- O‘rmon fondi yerlari (o‘rmon bilan qoplangan va o‘rmon bilan qoplanmagan, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan yerlar);

- Suv fondi yerlari (yirik suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan maydonlar);

- Zahira yerlar (foydalanishga va ijaraga berilmagan barcha turdagi yerlardan) tarkib topgan.



Yer resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda shoʻrlangan yerlar sugʻoriladigan yerlarning 50,7 foizi (2170.7 ming gektar) boʻlib , kuchsiz shoʻrlangan yerlar 31.4 foizni , oʻrtacha shoʻrlangan yerlar 15.5 foizni , kuchli shoʻrlangan yerlar 3.8 foizni tashkil etadi. Yaylovlar maydoni 20.8 mln gektar ni tashkil qilib , uning 18.7 mln gektar sugʻoriladigan , 1.6 mln gektar depressiyaga uchragan yerlar , 15.1 mln gektardan ortiq yerlar xoʻjalik maqsadlarida umuman foydalanilmaydigan (qiyaliklar, uyumlar, glyuliogonlar, qumliklar, chiqindixona va boshqalar) dan iborat. Oʻzbekiston sugʻoriladigan yerlarning 20-40 foizgacha maydoni defatsiyaga uchragan , 2.8 mln gektar yaylovlar sugʻorishga muhtoj, 160 ming gektardan koʻproq maydonda texnogen taʼsirlarga uchragan.

Mamlakatimiz yer fondining 58-60 foizi qishloq xoʻjaligida foydalanishga yaroqli yerlar hisoblanadi.

Qishloq xoʻjaligining umumiy maydonida haydalma yerlar salmogʻi:

- sugʻoriladigan lalmi yerlar 12.4 foiz,
- lalmi haydalma yerlar 2.8 foizni
- ahamyatga molik yerlar 84.8 foizni tashkil etadi.

Sugʻoriladigan yerlarning 643.2 ming gektar irrigatsiya eroziyasiga duchor boʻlgan. Masalan: Qashqadaryo (159.7 ming gektar) Toshkent (138.6 ming gektar), Samarqand (121.9 ming gektar) maydonda shakllangan. Suv eroziyasi 746.4 ming gektar maydonda shakllangan, va eng koʻp (Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Fargʻona vodiysi) ning lalmi yerlarida keng maydonni egallagan. Shuning uchun ham mamlakatimizda eroziyaga qarshi samarali kurashish chora- tadbirlarini amalga oshirilishi lozim. Yer sifatining yomonlashuviga olib keluvchi sabablarga barham beruvchi asosiy meliorativ va boshqa tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- Mineral va organik oʻgʻitlar tizimini amalga oshirish;
- Almashlab ekishga rioya qilish
- Kollektor -zovur tizimlarining oʻz vaqtida tozalash va yer maydonlarining minerallashtirish va yer osti suvlarini chiqarib yuborish
- Shoʻrlangan yerlarni yuvish
- Dala maydonlaridan foydalanishni istiqbolli va joriy rejalashtirish ;
- Chuqur shudgorlashni amalga oshirish
- Sugʻorish meʼyorlari va texnikasini asoslash va ularga rioya qilish, sugʻorish suvini hisobga olish
- Eroziyaga qarshi chora- tadbirlarni samarali tashkil qilish
- Ixota oʻrmon daraxtzorlari barpo etish
- Dalalarga ishlov berish tizimiga rioya qilish
- Kimyoviy preparatlarni qoʻllanilishini nazorat qilish va boshqa tashkiliy ishlar tizimidan iborat.

Mamlakatimizda olib borilayotgan amaliy ishlar, jumladan: tuproq gruntini shoʻrsizlantirish va zovurlashtirishning eng samarali uslublaridan foydalanib, tuproqni yuvishga tayyorlash ,shoʻrini yuvish meʼyori va boshqa tadbirlarni samarali tashkil etish orqali shoʻrxok yerlarni jadal oʻzlashtirish mumkin. Birgina 2021 - yilda 48

ming gektar qishloq xo'jaligidagi yaroqsiz ekin maydonlari muomalaga kiritilgan 170 mln gektardan ortiq maydonda suvni tejevchi texnologiyalar joriy etildi natijada holati yomonlashagan 303 ming gektar yerning unumdorligi oshirildi. Hosildorligi past bo'lgan 293 ming gektar maydonda daromad bop turli xil ekinlar yetishtirildi. 35 ming gektar intensiv bog' va tokzorlar barpo etildi. Qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan maydonlar 1.9 mlrd bo'lib, bu jami yer fondining 13 foiziga teng. Mamlakatimizda yer resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi lozim. Agarda yer resurslarini turli xil ifloslanishlardan saqlanmasa yer resurslarini meliorativ holatining buzilishiga, tuproq unumdorlik darajasini pasayishiga olib keladi. So'nggi yillarda mamlakatimiz tabiiy yaylovlardan tartibsiz foydalanish natijasida ham, yaylovlarning tabiiy landshaftlariga sezilarli darajada putur yetkazilgan. O'zbekiston yaylovlari 22 mln gektarni tashkil etib, uning 17.4 mln gektari cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda ko'chma chorvachilikda yaylovlardan foydalanish eroziya va boshqa antropogen ta'sirlari natijasida ozuqa hajmining yo'qolishi - degresiyasi sodir bo'lgan. Barcha yaylovlarning 16.4 mln gektari yoki 78% degresiyasiga uchragan. Yaylovlar degresiyasi Jizzax, Samarqand, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryoda 70% dan ortiq maydoni egallagan. Tog' yaylovlari jadal foydalanish o'z navbatida o'simliklar degresiyasiga va jala oqimlari, sel toshqinlarining olib kelmoqda. Shuning uchun ham o'zbekistonda sellarning hosil bo'lish jarayoni kuchli rivojlangan. Yerni suv bosishi o'zbekiston hududini 20% dan ortiq maydonni suv bosgan. Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm, Navoiy viloyatlarida sug'oriladigan yerlarning 40% dan ko'prog'ini, Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyati 30-40% Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlarida 20-30% maydonni suv bosgan.

Suv bosish jarayonining oldini olish uchun sizot suvlari sathini pasaytirish uchun quyidagi ishlar bajarilishi talab etiladi:

- kollektor-drenaj tarmoqlari zichligini oshirish;
- gidrotexnik inshootlarni loyqalardan tozalash, agrotexnik tadbirlarga rioya etish;
- suv va suv resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirish lozim.

Mamlakatimiz yer fondi tarkibida:

- Ekin yerlar 3303.6 ming gektar;
- Lalmi yerlar 790.4 ming gektar;
- Bo'z yerlar 83.600 ming gektar;
- Ko'p yillik daraxtzorlar 335.8 ming gektar;
- Pichanzorlar va tabiiy yaylovlar 21207.3 ming gektar;

Respublikamizda ko'p yillik ekinlarning strukturasi: bog'lar - 52.3 %, uzumzorlar - 27.8 %, tutzorlar - 18 %, boshqa ko'p yillik ekinlar 1.9 % ni tashkil qiladi. Lalmikor yerlar eng ko'p Jizzax viloyati (227.8 ming gektar), Qashqadaryo viloyati (252.0 ming gektar), Samarqand viloyati (183.5 ming gektar), Surxondaryo viloyati (42.1 ming gektar) maydonni egallagan.

Sug'oriladigan yerlarning 53 % yoki 286 ming gektar turli darajada sho'rlangan. Kuchli sho'rlangan yerlar 1 mln 125 ming gektar, o'rtacha sho'rlangan yerlar 650

ming gektar, kuchsiz sho‘rlangan yerlar 250 ming gektar maydonni egallaydi. Kuchli sho‘rlangan yerlarning 70 ming gektari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 65 ming gektar Sirdaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Tuproq boniteti nisbatan past bo‘lgan hududlarga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, va Farg‘ona viloyatlari kiradi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan „Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimining tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi ” 2007 - yil 29- oktabrdagi PF 3932 sonli qaroriga muvofiq sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatining yanada yaxshilanishiga erishildi.

Yer resurslari monitoringi - yer resurslarini muhofaza qilish, ularni baholash va meliorativ holatini doimo oshirib borish kabi qator vazifalarni o‘z tarkibiga oladi. Bugungi kunda yer resurslarini jadal miqyosda o‘zlashtirish davom etmoqda. Agarda, yer resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish tashkil etilmasa, mamlakatimiz yer resurslarining unumdorlik darajasining keskin pasayishiga va ularning yaroqsiz holatga kelib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zero, yer resurslaridan samarali foydalanish lozim

Xulosa. Bugungi kunda, mamlakatimizda yer resurslarining holatini baholash, monitoring qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e‘tibor berilishi lozim. Yer resurslari moddiy ne‘matlar orasida eng qimmatlisi va bebahosi hisoblanadi. Shuningdek, inson uchun zarur bo‘lgan moddiy ne‘matlarning barchasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtiriladi. Mamlakatimizda yer resurslariga bo‘lgan munosabatlarni yaxshilash maqsadida, qator meliorativ tadbirlar faol olib borilmoqda. Yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishga qaratilgan, o‘zaro bir biriga bog‘liq agrotexnik, meliorativ tadbirlarni izchil davom ettirish orqali yer resurslarining holatini doimo yaxshilab borish mumkin. Qishloq xo‘jaligining eng ilg‘or texnologiyalaridan foydalanib, yer resurslarini muhofaza qilish va unumdorlik darajasi oshirish, meliorativ holatini yaxshilash hamda yer resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Nomozov, Yu.Qoraxonov, O.Amanov „Yer resurslaridan foydalanish va himoyalash ” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2011
2. A.Qayimov, A.R. Bobojonov „Yer resurslarini boshqarish ” Toshkent- 2020
1. M.Mahmudov, Q.Haydarov, „Yaylovshunoslik” Toshkent - 2010
3. A.S.Altiyev „Yerdan foydalanish iqtisodiyoti ” Toshkent - 2019
2. Sh.Xoliqulov, P.Uzoqov, „Tuproqshunoslik” Toshkent - 2011
3. „O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari holati haqidagi milliy hisobot ” Toshkent- 2003
4. N.Muradullayev, Q.R.Rahmanov, T.S.Burxonov, N.Sh.Umarov „Yer monitoringi ” Samarqand - 2019
5. U.Norqulov, X.Sheraliyev „Qishloq xo‘jaligi” melioratsiyasi „ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” T-2003
6. M. U. Umarov „Почвы Узбекистан" фан Toshkent -1975

7. K.I. Shadramova, X.Q. Namazov „Lalmikor tuproqlar bahitrovkasi , ularni iqlim qiymat bahosi" Toshkent-2003
8. E.Qurbonov „Respublikadagi sug'oriladigan yerlarning holati va ulardan samarali foydalanish. Sug'oriladigan bo'z tuproq unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari" Ilmiy to'plam Samarqand-2002
9. S. G'afurova, K. Shadramova, A. Abdullayev,, Meliorativ tuproqshunoslik " Toshkent-2003
10. 13. „ O'zbekiston Respublikasi yer resurslari holati to'g'risida milliy hisobot " Toshkent-2003
11. 14. E. Qurbonov, R. Qo'ziyev, X. Bo'riyev, L. G'afurova „O'zbekiston Respublikasi yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy, huquqiy, meyoriy va amaliy asoslari " Toshkent-2001